

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

61010200 – Sport faoliyati (voleybol)
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

61010200 – Sport faoliyati (voleybol)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: OLIMOV ALISHER ISAQOVICH

Jizzax davlat pedagogika universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: TURAPOVA SHOXSANAM XOLMUROD QIZI

Jizzax davlat pedagogika universiteti

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260093
Xulosa raqami	892
Xulosa sanasi	16.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Z.M.Bobur ko'chasi, 22-uy. Guvohnoma: MAS № 0000323, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Sport faoliyati (voleybol)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	61010200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000323, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	61010200 – Sport faoliyati (voleybol)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	61010200 – Sports Activity: Volleyball
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	61010200 – Спортивная деятельность (волейбол)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil / 4,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Murabbiy, jismoniy tarbiya o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Z.M.Bobur ko'chasi, 22-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim sifatini ta'minlash va uni muntazam takomillashtirib borishga qaratilgan ichki mexanizmlar samarali shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim sifati monitoringi muntazam amalga oshiriladi hamda uning natijalaridan ta'lim dasturini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida foydalaniladi. Ta'lim sifatini baholashda talabalar, professor-o'qituvchilar, bitiruvchilar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari inobatga olinib, o'tkazilgan so'rovnomalar va monitoring natijalari asosida o'quv rejalari, fan dasturlari hamda o'quv-uslubiy ta'minot muntazam yangilanadi. Bunday yondashuv ta'lim dasturining mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanishini va uning dolzarbligini ta'minlaydi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy tuzilma va boshqaruv mexanizmlari shakllantirilgan bo'lib, tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi amaldagi normativ talablar hamda ta'lim dasturining maqsadlariga muvofiq tashkil etilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 61010200 – Sport faoliyati (voleybol) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturi amaldagi Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, milliy va xalqaro sport ta'limi rivojlanish tendensiyalari hamda mehnat bozori ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadi, vazifalari, kutilayotgan o'quv natijalari va bitiruvchilarda shakllantiriladigan kasbiy kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ular zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarga ega raqobatbardosh trener-

pedagoglar hamda sport sohasi mutaxassislarini tayyorlashga yo'naltirilgan. Dastur mazmuni voleybol sportining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, amaliy ehtiyojlari va sport sohasidagi dolzarb talablarni inobatga olgan holda shakllantirilgan. O'quv rejasida umumkasbiy, mutaxassislik va tanlov fanlari o'rtasidagi mantiqiy mutanosiblik ta'minlangan bo'lib, bu talabalarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy va kasbiy kompetensiyalarni izchil shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim dasturi mazmuni amaldagi normativ talablar hamda ta'lim dasturining maqsadlariga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim jarayoni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va kredit-modul tizimi talablari asosida samarali tashkil etilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining o'quv rejasi, fan dasturlari, sillabuslar, amaliyot turlari va baholash mexanizmlari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, talabalarning belgilangan o'quv natijalariga bosqichma-bosqich erishishini ta'minlaydi. O'quv jarayonida nazariy va amaliy tayyorgarlik o'rtasidagi muvozanat saqlangan: talabalar dastlab sport faoliyati, pedagogika, psixologiya, anatomiya va fiziologiya kabi fundamental fanlarni o'zlashtirsa, keyingi bosqichlarda voleybol texnikasi va taktikasi, sport mashg'ulotlarini rejalashtirish, musobaqa faoliyati, trenerlik mahorati hamda pedagogik faoliyat bo'yicha amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi. Bunday izchillik bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga xizmat qiladi. Talabalar bilimini baholash mezonlari oldindan belgilangan, baholash jarayonlarining shaffofligi va akademik halollik tamoyillariga rioya etilishi ta'minlangan bo'lib, o'quv jarayoni va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida tashkil etilgani aniqlandi. Qabul parametrlari universitetning moddiy-texnik bazasi, professor-o'qituvchilar salohiyati, axborot-resurs markazi imkoniyatlari, moliyaviy resurslari hamda hududiy mehnat bozori ehtiyojlarini inobatga olgan holda shakllantirilgan. Qabul hajmining mavjud resurslar

va hududiy ehtiyojlarga mutanosib ravishda belgilanishi ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va sifatni ta'minlashga xizmat qiladi. Talabalar harakati bilan bog'liq barcha jarayonlar, jumladan o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash, akademik ta'til berish va o'qishdan chetlashtirish tartiblari ichki me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solingan. Talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 61010200 – Sport faoliyati (voleybol) ta'lim yo'nalishini amalga oshirish uchun zarur pedagogik, ilmiy va o'quv-yordamchi kadrlar salohiyati shakllantirilgani aniqlandi. "Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar tarkibi son va sifat jihatidan ta'lim dasturi talablariga mos bo'lib, kafedraning ilmiy salohiyati 43,75 foizni tashkil etadi va amaldagi normativ talabdan yuqori hisoblanadi. Professor-o'qituvchilar sport faoliyati, voleybolni o'qitish metodikasi, jismoniy tarbiya, pedagogika hamda sport mashg'ulotlari nazariyasi yo'nalishlarida ixtisoslashgan. Voleybol yo'nalishi uchun professor-o'qituvchilarning amaliy trenerlik tajribasi, musobaqa faoliyatidagi ishtiroki va zamonaviy sport tayyorgarligi metodlarini egallaganligi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 61010200 – Sport faoliyati (voleybol) ta'lim yo'nalishini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, axborot-resurs ta'minoti hamda raqamli infratuzilma shakllantirilgani aniqlandi. Universitetda voleybol bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi sport zallari, stadion, sport maydonchalari, trenajyor zallari hamda zarur sport inventarlari mavjud. Sport inshootlari va o'quv xonalari sanitariya-gigiyena, mehnat muhofazasi va xavfsizlik talablariga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, talabalar uchun qulay va xavfsiz ta'lim muhiti yaratilgan. Voleybol yo'nalishi uchun standart o'lchamdagi sport zali, musobaqa sharoitiga yaqin mashg'ulot muhiti hamda zamonaviy sport jihozlarining

mavjudligi talabalarning kasbiy va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Sport inshootlari va mashg'ulot inventarini muntazam yangilab borish tavsiya etiladi.
- ✓ Sport klublari va federatsiyalar bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Sport zallari, maydonchalar va inventar bazasini yangilab borish.
- ✓ Voleybol klublari va federatsiya bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish.
- ✓ Kafedra ilmiy salohiyatini (43,75 %) izchil oshirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Chirchiq davlat pedagogika universitetining 61010200 – Sport faoliyati (voleybol) bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim sifatini ta'minlash va muntazam takomillashtirishning ichki mexanizmlari shakllantirilgani, monitoring natijalari ta'lim dasturini rivojlantirishda samarali qo'llanilayotgani aniqlandi. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari hamda milliy va xalqaro sport ta'limi rivojlanish tendensiyalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda nazariy va amaliy tayyorgarlikning uzviyligi ta'minlangan. Talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi normativ talablar asosida tashkil etilgan. "Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" kafedrasining ilmiy salohiyati 43,75 foizni tashkil etib,

amaldagi me'yoriy talabdan yuqori darajada shakllangan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur sport zallari, stadion, sport maydonchalari, trenajyor zallari, axborot-resurs bazasi hamda boshqa moddiy-texnik infratuzilma mavjud. Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 61010200 – Sport faoliyati (voleybol) bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

